


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Jigarga xos va vaskulo-fibrogen omillar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish nuqtayi nazaridan bolalarda surunkali HBV-infeksiyasining jadallashuv patogenezi va yangi diagnostik strategiyalarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - bolalarda surunkali HBV-infeksiyasi klinik kechishining progressiv og‘ir shakllarini rivojlanishida va jigar sinusoidal (LSEC) dekompensatsiya kontekstida jigarga xos CLRs-retseptorlari va fibrogen kompleks PDGF/PDGFR- trombositlarni o‘zgartiruvchi o‘rish omilining o‘zaro munosabatlarining patogenetik ahamiyati aniqlanadi; - bolalarda surunkali HBV-infeksiyasi sharoitida sinusoidal jigar tizimlari (LSEC) regulyatsiyasining kompensator mexanizmlarini hisobga olgan holda jigarda patologik jarayon faolligi (fibrozlanish) ning diagnostik mezonlarini ishlab chiqiladi; - bolalarda surunkali HBV-infeksiyasi jadallashuvi nuqtayi nazaridan jigarga xos CLRs-retseptorlari va vaskulyar kapillyarizatsiya (VEGF, VEGFR) markerlarining o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan jigar ichi angiogenezning kompensator (himoya) va dekompensator mexanizmlari qonuniyatlari o‘rnatiladi; - bolalarda surunkali HBV-infeksiyasida jigarning gemodinamik remodellashuvi va disangiogenezning molekulyar mexanizmlari nuqtayi nazaridan jigarda patologik jarayon faollik darajasini baholashning diagnostik mezonlarini ishlab chiqiladi; - bolalarda surunkali HBV-infeksiyasi jadallashuvida va jigar sirrozi rivojlanish xavfida jigar sinusoidal dekompensatsiya mexanizmlari bilan bog‘liq ravishda jigarning chuqur shikastlanish omillarining (α-GST; π-GST) patogenetik va diagnostik informativligini aniqlanadi; - jigarda patologik jarayon rivojlanishini baholashning diagnostik modeli, patogenetik sxema (nazariya), “Bolalarda surunkali HBV-infeksiyasi kechishining progressiv og‘ir shakllarini va nojo‘ya oqibatlarini shakllanishida jigar sinusoidal dekompensatsiyasining patogenetik jihatlari” uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqiladi; - jigarga xos va vaskulo-fibrogen omillar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish nuqtayi nazaridan bolalarda surunkali HBV-infeksiyasining jadallashuv patogenezi va yangi diagnostik strategiyalarini ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar eksperimental tadqiqotlar va tahlillar Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.